

## IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA BOLALAR UYLARI FAOLIYATINING IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Safixodjayeva Nodira Nabiyevna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20551835>

### Аннотация

Ushbu maqolada muallif Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonga evakuatsiya qilib olib kelingan yetim bolalar va ularning muassasalarga joylashtirilishi masalasiga to‘xtalib o‘tgan. Shu bilan birga, ko‘chirib keltirilgan hamda bolalar uylariga joylashtirilgan yetim bolalarning ta‘lim olishlari masalasiga alohida e‘tibor qaratgan. Ta‘lim jarayonlarini tashkil etishda yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumot berib o‘tgan.

**Kalit so‘zlar:** Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston, bolalar uylari, yetim bolalar, evakuatsiya, ta‘lim, tarbiya, ijtimoiy himoya, ijtimoiy-pedagogik muammolar.

## СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТСКИХ ДОМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРИОД ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Сафиходжаева Нодира Набиевна

преподаватель Узбекского государственного университета мировых  
языков

### Аннотация

В данной статье автор рассматривает вопросы размещения детей-сирот, эвакуированных в Узбекистан в годы Второй мировой войны, а также их устройства в детские дома и другие специализированные учреждения. Особое внимание уделяется проблемам организации обучения детей-сирот, прибывших в республику и воспитывавшихся в детских домах. Освещаются трудности, возникшие в процессе организации образовательной деятельности, а также меры, предпринятые для их преодоления и обеспечения надлежащих условий воспитания и обучения детей.

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, Узбекистан, детские дома, дети-сироты, эвакуация, образование, воспитание, социальная защита, социально-педагогические проблемы.

## SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF THE ACTIVITY OF ORPHANAGES IN UZBEKISTAN DURING THE SECOND WORLD WAR

Safixodjayeva Nodira Nabiyevna

Lecturer, Uzbekistan State World Languages University

### Abstract

This article examines the issue of accommodating orphaned children evacuated to Uzbekistan during the years of the Second World War and their placement in specialized childcare institutions. Particular attention is paid to the educational provision for orphaned children who were relocated

to the republic and placed in orphanages. The author analyzes the challenges encountered in organizing the educational process and discusses the measures undertaken to overcome these difficulties and ensure appropriate conditions for the upbringing and education of orphaned children.

**Keywords:** Second World War, Uzbekistan, orphanages, orphaned children, evacuation, education, upbringing, social protection, socio-pedagogical issues.

XX asrning eng daxshatli sinovi bo'lgan Ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga ko'p azob-uqubatlarni, qiyinchiliklarni olib keldi. 1941-yilda Germaniyaning Sovet Ittifoqiga boshlagan hujumi millionlab insonlar taqdirini o'zgartirib yubordi. Urush o'choqlarida qolib ketgan qariyalar, ayollar, bolalar va yetim qolgan bolalar front orti mamlakatlariga evakuatsiya qilindi. Asosan, Rossiya, Belarussiya va Ukraina hududlaridan aholi xavfsiz joylarga ko'chirila boshladi. Albatta, O'zbekiston aynan front orti mamlakati bo'lgani uchun bu joyga ham millionlab insonlar olib kelindi. Olib kelingan aholining 200 mingdan ziyodini bolalar tashkil etar edi. Bolalarning aksariyati ota-onasidan ayrilgan yetim bolalar edi. Shu sinovli davrda o'zbek xalqi o'zining chinakam insonparvarligi va bag'rikengligini yana bir bor ko'rsatdi. Ko'plab bolalar o'zbek oilalari tomonidan asrab olindi va ularga g'amxo'rlik qilindi

Shu bilan birga evakuatsiya qilingan bolalar uchun maxsus bolalar uylari, internatlar tashkil etildi. Urush yillarida O'zbekistonda bolalar uylari sonining bir necha barobarga ortishi asl sababi ham aynan mana shu ko'chirib keltirilgan yetim bolalar edi. Xususan urush arafasida respublikada faqat 106 ta Bolalar uylari mavjud bo'lib, ularda 12 ming nafar bola tarbiyalangan edi. 1945 yilda O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 268 ta Bolalar uylari mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 31.300 nafar bolani tashkil qilgan.[1,97-98]. Xususan, 1941-yil 1-oktabrdan 1942-yil 1-oktabrgacha bo'lgan davrda O'zbekistonga frontga yaqin hududlarda joylashgan 78 ta bolalar uyidan 43 ming nafar bola evakuatsiya qilingan [2, 32-b.]. Shundan 50 ta bolalar uyi mustaqil muassasa sifatida saqlab qolingan. Ular O'zbekistonning turli hududlariga joylashtirilgan bo'lib, jumladan: 4 tasi Samarqand viloyatida, 9 tasi Namangan viloyatida, 5 tasi Toshkent shahrida, 13 tasi Andijon viloyatida, 10 tasi Farg'ona shahrida va 9 tasi Buxoro viloyatida faoliyat yuritgan[2] Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida joylashgan Bolalar uyida 1945 yil 169 nafar, 1948 yil 180 nafar, 1949 yil 218 nafar bola tarbiyalangan.[1, 97-98-b.]

Ikkinchi jahon urushi boshlarida Andijon viloyatiga 26 ta bolalar uyi, turli millatga mansub 10 ming nafar bola hamda 100 ming nafar aholi ko'chirib keltirilgan. Kuybishev viloyatidan kelgan 850 nafar bola Andijon viloyatining Paxtaobod, Chinobod va Xoldevonbek qishloqlariga joylashtirilgan. Donbass hududidan ko'chirib keltirilgan 4 ta bolalar uyi esa Oyim tumani hududidagi bolalar uylariga, shuningdek Andijon tumani qishloq soveti tarkibidagi Bo'taqara qishlog'iga joylashtirilgan [2]. Bolalar uylariga joylashtirilgan tarbiyalanuvchilarni oziq-ovqat, kiyim-kechak va ta'lim olishi uchun zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Pedagoglar va tarbiyachilar bolalarning ruhiy holatini tiklashga ham alohida e'tibor qaratdilar. Albatta ko'chirib keltirilgan bolalarga ta'lim berishni qanday yo'lga qo'yish bo'yicha hududlardan ko'plab so'rovlar kelib tushgan. Ana shu so'rovlarga javoban, O'zSSR Xalq Komissarligining 1941 yil 30-dekabrda xatiga ko'ra ba'zi joylarda, masalan Namangan viloyatida evakuatsiya qilingan bolalar uylari tarbiyalanuvchilari uchun maxsus sinflar tashkil qilingan. Odatda, bolalar uylari tarbiyalanuvchilari umumiy asosda o'qishlari kerak, shuning uchun evakuatsiya qilingan bolalar uylari tarbiyalanuvchilari u yoki bu maktablarning sinflariga yuborilishi kerakligi belgilangan [3]

Biroq evakuatsiya qilib olib kelingan bolalarning turli millatlarga mansubligi ularni mahalliy maktablarning tegishli sinflariga joylashtirishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida bir qator tashkiliy choralar belgilangan.

Xususan, bolalar uyi joylashgan hududda rus maktablari yoki rus tilida ta'lim beruvchi sinflar mavjud bo'lmagan taqdirda, zarurat va ruxsat asosida o'quv mashg'ulotlarini bevosita bolalar uyining o'zida tashkil etish imkoniyati ko'zda tutilgan. Ayrim hollarda, agar evakuatsiya qilingan bolalar uyida avvaldan shakllangan o'quv guruhlari (sinflar) mavjud bo'lsa, ularni saqlab qolish maqsadga muvofiq deb topilgan. Shu bilan birga, ushbu sinflarga oilalarda yashayotgan evakuatsiya qilingan bolalarni ham jalb etish tavsiya etilgan.

Agar bolalar orasida rus tilidan tashqari ukrain yoki belarus tillarida ta'lim olganlar mavjud bo'lsa, ular uchun alohida sinflar tashkil etishga ruxsat berilgan. Bunday sinflarni tashkil etish uchun bolalar uyida zarur sharoit yoki imkoniyat mavjud bo'lmagan hollarda, yaqin atrofdagi o'zbek maktablarida ikkinchi yoki uchinchi smenada dars mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlangan.

Shu bilan birga, tashkil etilgan alohida sinflarda ta'lim jarayonini qaysi o'quv dasturi asosida olib borish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu masalada, agar o'quvchilar ta'lim jarayonida uch oy va undan ortiq muddat uzilishlarga duch kelgan bo'lsa, 1941–1942 o'quv yilining yakuniga qadar qolgan davrni o'tilgan materiallarni takrorlash va mustahkamlashga yo'naltirish maqsadga muvofiq deb hisoblangan. Dastur ishlab chiqishda vaqtning cheklanganligi inobatga olinib, o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim darajasi asosida moslashtirilgan yondashuvni qo'llash zarurligi qayd etilgan. [3]

Urush sharoitida nafaqat bevosita jangovar harakatlar olib borilayotgan hududlarda, balki front orti hisoblangan mamlakatlarda ham aholining turmush darajasi va yashash sharoitlari keskin yomonlashgan edi. Kundalik iste'mol uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklangan bo'lib, buning asosiy sababi, mavjud moddiy va iqtisodiy resurslarning katta qismi front ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilganligida edi. Natijada, front ortida mehnat qilayotgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli murakkablashib, ularning turmush sharoiti og'irlashgan. Shunday og'ir sharoitga qaramasdan o'zbek xalqi o'zining qanchalar mehribon va bag'rikeng ekanligini yana bir bor isbotlagan edi. Chunki mamlakatga evakuatsiya qilib olib kelingan millionlab insonlarni, ular qatorida kelgan yetim bolalarni o'z bag'riga oldi. Olib kelingan bolalarning ma'lum qismi oilalarga qabul qilingan bo'lsa, qolgan bolalar uchun maxsus muassasalar tashkil etildi. Shoshilinchda faoliyati yo'lga qo'yilgan ushbu muassasalarda albatta kamchiliklar, muammolar mavjud edi. Ayrim bolalar uylarida bolalar uchun yashash sharoitlari yaxshi bo'lmasa, ayrimlarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishmas, ba'zilarida kiyim-bosh bilan ta'minlash qoniqarsiz holatda edi. Masalan, 1942-yilda Andijon viloyatidagi 7 ta evakuatsiya qilib olib kelingan bolalar uylari ahvoli o'rganiladi. Bular:

1. Kiev shahridan evakuatsiya qilingan 13-sonli bolalar uyi — Lenin tumani, Proletar qishloq kengashida;
2. Kiev shahridan evakuatsiya qilingan 11-sonli bolalar uyi — Lenin shahri;
3. Vinnitsa viloyatidan evakuatsiya qilingan 14-sonli bolalar uyi — Marhamat tumani;
4. Chernigov shahridan evakuatsiya qilingan 4-sonli bolalar uyi — Bo'taqara qishloq kengashi;
5. Vinnitsa viloyatidan evakuatsiya qilingan 5-sonli bolalar uyi — Xartum qishloq kengashi, Andijon tumani;
6. Kiev shahridan evakuatsiya qilingan 9-sonli bolalar uyi — Xo'jabod tumani;
7. Mariupol shahridan evakuatsiya qilingan 15-sonli bolalar uyi — Paxtobod tumani.

Ushbu tekshiruvlar natijasida bu bolalar uylarining holati qoniqarsiz ekanligi aniqlanadi. Xususan, bolalar joylashtirilgan binolarning tor va yetarli emasligi sababli 70% gacha tarbiyalanuvchilar ikki nafardan bitta karavotda uxlashga majbur (Xartum, Xo‘jabod, Paxtobod). Lenin shahridagi bolalar uyida esa karavot yetishmagani uchun ko‘pchilik bolalar polda yotishgan. Binolarning eskirganligi va ta‘mirtalabligi — devorlar, tom, pol, pechlar jiddiy ta‘mirga muhtoj bo‘lgan. Bolalar uchun zarur bo‘lgan yordamchi xonalar, kir yuvish joylari, oshxona va hammomlar mavjud bo‘lmagan. (Bo‘taqara, Proletar, Xartum, Paxtobod, Xo‘jabod, Marhamat tumanlari). Sanitariya qoidalari qo‘pol ravishda buzilgan: bolalar xom suv ichish holati kuzatilgan (Paxtobod, Xo‘jabod, Bo‘taqara, Marhamat). Marhamatdagi bolalar uyi omborida kiyim-kechak yetarli bo‘lsa-da, bolalar iflos holatda. Bolalar uylarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati yo‘qligi, viloyat va tuman darajasidagi Xalq ta‘limi hamda Sog‘liqni saqlash boshqarmalari tomonidan davlat nazorati yetarli emasligi aniqlangan.

Urush yillarida bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning oziqlanish darajasi nihoyatda past bo‘lgan. Masalan, Paxtobod bolalar uyi 1-fevraldan 1-iyungacha belgilangan don mahsulotlarining 25 foizini, yog‘ning 50 foizini va shakar normasining atigi 5 foizini olgan. Xo‘jabod bolalar uyida yog‘ning 5 foizi va donning 15 foizi, Bo‘taqara bolalar uyida esa yog‘ning 15 foizi hamda shakar normasining 3 foizi bilan ta‘minlangan. Natijada, Marhamat, Jalolquduq, Xartum, Bo‘taqara va boshqa bolalar uylarida bolalarning ommaviy qochish holatlari kuzatilgan. Ayrim bolalar uylarida tarbiyaviy jarayonlarning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani ham umumiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat ayniqsa Bo‘taqara (Andijon tumani) va Marhamat bolalar uylarida kuzatilgan. Mazkur bolalar uylari tarbiyalanuvchilari tomonidan davlat mulkini o‘g‘irlash, kolxozchilardan meva, fuqaro uylaridan pul o‘g‘irlash holatlari kuzatilgan [4. 46-b].

Mazkur holat, avvalo, urush davrida mavjud resurslarning katta qismi front ehtiyojlariga yo‘naltirilgani hamda ta‘minot tizimidagi uzilishlar bilan izohlash mumkin bo‘ladi. Oziq-ovqat yetishmovchiligi va turmush sharoitlarining murakkablashuvi bolalar uylaridagi kundalik hayotga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Evakuatsiya qilingan bolalar uylarini oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar bilan muntazam ta‘minlash maqsadida bir qator rasmiy qarorlar qabul qilingan. Jumladan, 1942-yil fevral oyida “Bolalar uylarini markazlashtirilgan tartibda ta‘minlash to‘g‘risida”, 1943-yil aprel oyida “Evakuatsiya qilingan fuqarolar bolalarini oziqlantirishni tashkil etish to‘g‘risida”, 1943-yil iyul oyida esa “Bolalar uylarini oziq-ovqat bilan ta‘minlashning qo‘shimcha manbalarini yaratish to‘g‘risida”gi qarorlar qabul qilingan. Ushbu qarorlar bolalar uylaridagi, ayniqsa, go‘daklar holatini yaxshilashga qaratilgan edi [2].

Qiyinchiliklarga qaramay, bu bolalar yangi muhitga moslashib, hayotga bo‘lgan ishonchini asta-sekin tiklab bordi.

1940–1945-yillar oralig‘ida bolalar uylari sonining o‘zgarishini kuzatish mumkin. Xususan, 1943-yilda bolalar uylari soni keskin oshib, 267 taga yetgan bo‘lsa, 1944-yilda bu ko‘rsatkich kamaygan. 1944–1945-yillarda respublikada bolalar uylari sonining qisqarishiga asosiy sabab — bolalarning katta qismi ozod etilgan hududlardagi o‘z shahar va viloyatlariga qaytarilgani bilan izohlanadi. Masalan, 1945-yil iyul oyida 11 ta bolalar uyi respublikadan o‘zining avvalgi joylashgan hududiga — Ukrainaga ko‘chirilgan. Jumladan, Farg‘ona va Samarqand viloyatlaridan bittadan, Qashqadaryo va Namangan viloyatlaridan ikkitadan, Andijon viloyatidan esa beshta bolalar uyi o‘z yurtiga qaytarilgan [2].

Urushning dastlabki kunlaridan urush o‘choqlaridan evakuatsiya qilib olib kelingan bolalarni qabul qilib olish uchun O‘zbekiston aholisi juda katta ga‘mxo‘rlik va insoniylik

tuyg'ularini ko'rsatdi. Chunki bunday ko'p bolalarni to'liq qabul qilib olishga mamlakat tayyor emas edi. Biroq shunga qaramasdan o'zbek xalqining fidokorona mehnatlari natijasida minglab bolalarning hayoti saqlab qolindi. Urush nihoyasiga yetib bu bolalarning ko'plari o'z yurtlariga qaytib ketgan bo'lsada, o'sha o'g'ir yillarda o'zbek xalqi tomonidan qilingan g'amxo'rlikni unutmadilar.

O'sha mash'um yillardan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Toshkentdagi Antonina Xlebushkina rahbarlik qilgan va bugungi kunda uning nomi berilgan 22-sonli Mehribonlik uyi fikrimizning dalilidir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Abdullayev D.N. O'zbekistonda xayriya va homiylikning rivojlanish tarixi (XIX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2019. 144 -b.
2. Саидова Г.Ш. Жизнь эвакуированных детей в Узбекистане в годы Второй мировой войны / <https://moluch.ru/archive/59/8352/>.
3. O'z MA R-94-fond, 5-ro'yxat, 4220-yig'ma jild
4. O'z MA R-94-fond, 5-ro'yxat, 4257-yig'ma jild, 46-varaq